

TIQXMMI Buxoro filialida hokim o'rinbosarlari malaka oshirmoqda

Davlatimiz rahbarining joriy yil 18-19-fevral kunlari Namangan viloyatiga tashrifi davomida ham tuman (shahar) hokimi o'rinbosarlarini "mahallabay" ishlash bo'yicha joriy etilayotgan yangi tizim bo'yicha malaka oshirishlari yuzasidan topshiriqlar berilgandi. Shunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Buxoro viloyati filiali tashabbusi bilan bugun, 24-may kundan boshlab Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Buxoro filialida Buxoro viloyatining tuman va shahar hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalasi bo'yicha o'rinbosarlarining bosh mutaxassislarini o'quv mashg'ulotlari boshlandi.



5 kun muddat davom etadigan o'quv-mashg'ulotlarida trenerlar tomonidan soha bo'yicha yangi qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlarni "mahallabay" tatbiq etish, ilm bilan amaliyotni bir-biriga integratsiya qilish hamda joyiga chiqib mavjud muammolarni o'rganish va bartaraf etish yuzasidan strategik vazifalar yo'nalishida olib boriladi. Bundan tashqari, hokim o'rinbosarlarining bosh mutaxassislarini boshqaruv sohasidagi bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi.



O'quv-seminarlari davomida tinglovchilar o'zlarining hududlariga xos bo'lgan amaliy muammolar yechimiga zamonaviy yondashuvlar va ekspert xulosalariga tayangan holda taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishadi.

TIQXMMI Buxoro filiali Matbuot xizmati
TIQXMMI matbuot xizmati